

VOLUME-1, ISSUE-5

“KORRUPSIYA –TARAQQIYOT KUSHANDASI”

Saidov Nazarbek Samad o`g`li

Buxoro viloyati Yuridik texnikumi o`quvchisi

Telefon:+998916489787

E-Pochta: saidovnazarbek3@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jadal ravishda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda korrupsiyaga nisbatan munosabat va korrupsiyaga qarshi kurash jarayonida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar to‘g‘risida atroflicha ma’lumot beradi.Bugungi kunda jamiyat tarkibida hayot kechirar ekanmiz eskicha fikrlash, eskicha ish tartibini yuritish tushunchalaridan voz kechmas ekanmiz inson hayotini, jamiyatimiz hayotini yaxshilashga bo‘lgan intilishimiz oxiriga etmasdan barbod bo‘lishi odatiy hol sifatida qolib ketaveradi.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, «O‘zbekiston respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident farmoni, «O‘zbekiston respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» gi Prezident qarori, «halollik vaksinasi».

**Abstract:** This article provides detailed information about the attitude towards corruption and the practical work carried out in the fight against corruption in our rapidly developing country. it remains a common practice that our aspiration to improve human life and the life of our society fails before reaching the end.

**Keywords:** Corruption, Presidential decree "On additional measures to improve the system of combating corruption in the Republic of Uzbekistan", "Organizing the activities of the Agency for Combating Corruption of the Republic of Uzbekistan" "On" Presidential Decree, "Honesty Vaccine".

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация об отношении к коррупции в нашей быстро развивающейся стране и практической работе, проводимой в сфере борьбы с коррупцией. Сегодня, когда мы живем в обществе, если мы не откажемся от концепций старомодного мышления и старомодных рабочих процедур, то, что наше стремление улучшить человеческую жизнь и жизнь нашего общества потерпит неудачу, останется обычным явлением. дойдя до конца.

**Abstract:** This article provides detailed information about the attitude towards corruption in our rapidly developing country and the practical work carried out in the fight against corruption.

Today, as we live in society, unless we give up the concepts of old-fashioned thinking and old-fashioned operating procedures, it will remain a common occurrence that our quest to improve human life and the life of our society will fail. reaching the end.

Bilamizki hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotiga katta xavf solayotgan jirkanch illatlardan biri bu – korrupsiyadir. Korrupsiya jamiyat uchun ham davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Korrupsiya faqatgina jinoyat yoki huquqbazarlik emas balki ma’naviy buzilish holatidir. Korrupsiya jamiyat va davlat rivojiga xalqning adolatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavfdir. Poraxo'rlikka qarshi kurashishda har birimiz ma’sulmiz. Uning uchun har birimiz halol xizmat tarafdori bo‘lishimiz lozim. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan korrupsiya xavfiga qarshi kurashishga doir bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilinib uning yuzasidan chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda 9 – dekabr xalqaro – korrupsiyaga qarshi kurashish kuni

## VOLUME-1, ISSUE-5

deb ham e'lon qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- Bosh prokuratura;
- Davlat xavfsizlik xizmati;
- Ichki ishlar vazirligi;
- Adliya vazirligi;

Bu borada Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

➤ korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

➤ aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

➤ ta'lif muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lif va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

➤ normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi;

➤ korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi;

➤ korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

➤ korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi. Korrupsiyani oldini olish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan quyidagi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- 

ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

➤ davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik;

➤ tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik;

ta'lif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbarliklarga yo'l qo'ymaslik.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida korrupsiya masalasiga alohida to'xtalib unga qarshi kurashishni kuchaytirish kerakligini qat'ian ta'kidladi. Qonun ustuvor jazo muqarrar bo'lishi kerak deydi ular o'z nutqlarida. Prezidentimiz korrupsiya haqida Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitalarini tuzishni taklif qildi. Yaqindagina men taxsil olayotgan Navoiy viloyati Yuridik texnikumida ham "Biz korrupsiyaga qarshimiz" shiori ostida chellenj bo'lib o'tdi. Bunda barcha tengdoshlarim ustozlarim faol ishtirok etishdi. Faqatgina birga korrupsiyani to'xtata olamiz. Korrupsiyadek jirkanch illat davlatimizning ertangi kelajagiga g'ov bo'lishiga yo'l qo'ymaylik. Zero adola mezoni har birimizning qalbimizda jo bo'lsin. "Korruptsiya—shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy

**VOLUME-1, ISSUE-5**

manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisa sifatida keltirib o‘tamiz, chunki turli darajadagi amaldorlarga sovg‘a-salomlar berish orqali jamiyat va davlatda belgilangan normalar va qoidalarga zid bo‘lgan, noqonuniy ishlarning faoliyatiga zamin yaratamiz.

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2020 yil 29 iyun kuni PF-6013-son. «O‘zbekiston respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonidan maqsad 2017 —

2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish deb belgilandi. Hamda ushu farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida «O‘zbekiston respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» gi qaror PQ-4761-son.

«O‘zbekiston respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmon bilan tashkil qilingan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organ ekanligi, o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi lozimligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunishi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdor ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqarilishi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanishi qoidalari belgilab berildi. Bu esa korrupsiya bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar mamlakatimiz rahbari hamda bevosita xalq saylagan vakillar nazoratida ekanligini anglatadi.

**Xulosa**

Jamiyatimiz va davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini olib boruvchi Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari sifatida mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni

**VOLUME-1, ISSUE-5**

tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qtishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish, vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalarini va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplaens-nazorat») hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratasiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda deklaratasiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralar ko'rinishini ta'minlash, davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaksinasi») va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli choratadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish kabilar belgilab berildi.

**Foydalanilgan\_adabiyotlar**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992 (qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan)
2. O'zbekiston Respublikasining —Korupssiya to'g'risidagi Q onuni 31.10.1999 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining —Baholash faoliyati to'g'risidalgi Qonuni 19 avgust 1999 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining —Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risidagi.Qonuni.19.11.1991-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-soni.
6. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

**VOLUME-1, ISSUE-5**

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-son qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-son qarori.

11. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 829-son qarori.

12. O'zbekiston Respublikasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga Qarshi Konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr).

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori

15. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

16. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)

17. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)

18. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)